

QAHRAMONLAR VA ICHKI DUNYO: “SEVGIM – SEVGILIM” QISSASINING  
TAHLILI

Ro‘zimurodova Sug‘diyona O‘ktam qizi,  
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat  
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti

**Annotatsiya.** “Sevgim – sevgilim” qissasi orqali yozuvchi qahramonlarning ruhiy holati, ularning ichki kechinmalarini, qahramon xarakteri va ularning bir – biriga bo‘lgan munosabati orqali inson qalbining murakkab ekanligi, sadoqat masalasi yorqin tarzda ochib beradi. Muallif o‘zining uslubida ichki monologlardan foydalanish natijasida qahramonlar dunyosini ochib berish orqali, o‘z navbatida kitobxonning qahramonlar ichki kechinmalarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

**Kalit so‘zlar:** qissa, qahramon ruhiyati, motiv, ruhiy portet, semantik vazifa, obraz, “Yakkachinor” qishlog‘i, Oypopuk, O‘ktam, Usmon, Mavlon, “Tanovar”.

**Abstract.** This paper investigates the conceptual layer of the novella "Sevgim– sevgilim" (My Love, My Darling), specifically examining how devotion and the multi-layered human psyche are depicted. By evaluating the protagonists' behavior, mental states, and mutual interactions, the author illustrates the deep hidden aspects of their personalities. The study highlights that the deliberate use of internal monologues functions as a key narrative technique. This approach effectively decodes the characters' secret thoughts, allowing readers to fully grasp their underlying psychological struggles.

**Keywords:** novella, psychological layer, mental portraiture, motivational drive, semantic purpose, character profile, “Yakkachinor” village, Oypopuk, Uktam, Usmon, Mavlon, “Tanovar.”

**Аннотация.** В данной работе исследуется концептуальный уровень повести «Sevgim – sevgilim» («Моя любовь, мой любимый»), в частности, специфика отражения верности и многослойности человеческой психики. На основе оценки поведения, ментального состояния и взаимных контактов персонажей автор иллюстрирует скрытые аспекты их личности. В исследовании подчеркивается, что намеренное использование внутренних монологов функционирует как ключевой повествовательный прием. Такой подход эффективно декодирует тайные мысли героев, позволяя читателю полностью осознать их скрытые психологические трудности.

**Ключевые слова:** повесть, психологический пласт, ментальный портрет, мотивационный стимул, семантическое назначение, профиль персонажа, село Яккачинор, Ойнопук, Уктам, Усмон, Мавлон, “Тановар.”

**Kirish.** XX asrning 60 – yillarida o‘zbek adabiyotiga o‘zining salmoqli hissasini qo‘shgan adib, “O‘zbekiston xalq yozuvchisi” O‘lmas Umarbekov nafaqat, dramaturgiyada balki qissachilikda ham o‘ziga xos asarlar yaratgan. Shulardan biri, “Sevgim – sevgilim” qissasi 1963-yilda yozilgan bo‘lib, unda sevgi va muhabbat, sadoqat insonning ruhiy holati va inson ichki kechinma, o‘ylovlari orqali har doim ham bir qarorga kelolmasligi aniq ochib berilgan. Shunindek, sevgi motivining (motiv obraz). asarda qanday semantik vazifa bajarishi, uni shakallantiradigan omillar va qahramonlararo strukturaviy ahamiyati o‘rniladi. Qissaning boshlanishidagi voqealar bir qarashda soddaroq boshlanishi mumkin, ammo vaqt o‘tib har bir ro‘y berayotgan voqea va hodisalar qahramonlarning ichki holatini ochib berib, ularning ruhiy portertini chiroyli va chuqur ochib beradi. Qissaning markazida qahramonlarning ichki dunyosi turgan bo‘lib, har bir

obrazning o'ziga xos orzu, istaklari va qo'rquvlari, qolaversa, ichki konfilekti (lot, to'qnashuv) bor.

**Adabiyotlar sharhi.** O'zbek adabiyotshunosligida badiiy psixologizm hamda qahramon ruhiyatini tasvirlash masalasi tadqiqot obyektlaridan bir hisoblanadi. Jumladan, qahromlarning xarakterini ochib berishda psixologizmi, ichki monolog, ruhiy holat, va badiiy konfliktning o'rni kattadir. Badiiy asarda qahramon ruhiyatini ochib berish yozuvchi mahoratining asosiy vazifalaridan biri ekanligini adabiyotshunos olim Isajon Sulton ta'kidlab o'tadi. Bundan tashqari, bu borada Matyoqub Qo'shjonov, Umarali Normatov, Sobir Mirvaliyev va bir qancha olimlarning o'z tadqiqot ishlarida asarlarda inson psixologiyasining badiiy ifodalanishi keng ma'noda yoritib berilganini ko'ishimiz mumkin. Shuningdek, rus va jahon adabiyotshunosligida L.S.Vigotskiy, Baxtin, Tomashevskiy kabi olimlarning asarlarida badiiy obraz hamda uning psixologik mohiyati ham keng tahlilga olinadi. Bugungi kunda "Sevgim-sevgilim" qissasining poetik strukturasi qolaversa, qahramonlarning ichki olami, ruhiy psixologik holati tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha yoritilmagan. Ushbu maqola bu bo'shliqlarni to'ldirishga, asardagi qahramonlarning ichki kechinmalarini badiiy ifoda vositalari ochib berishga qaratilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolada qiyosiy metodidan foydalanib, asardagi qahramonlarning va "Tanovar" kuyining estetik xususiyatlari o'zaro taqqoslandi. Bundan tashqari, qiyosiy tipologik, kulturologik estetik-psixologik metodlardan ham foydalanilib, kuyning inson ruhiyatiga ta'siri ham o'ganildi.

**Tahlillar va natijalar.** O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist Mamatqul Hazratqulov o'zining "O'lmas asarlar yozgan baxtli adib", maqolasida ushbu qissa haqida o'zining fikrlari bilan o'rtoqlashar ekan shunday deydi: "Sevgim – sevgilim" qissasi juda mashhur bo'lgandi. Maktabimizda "Sharq yulduzi" ning shu qissa bosilgan soni qo'lma-qo'l bo'lib ketgan edi. Yigit qizlar o'rtasida shu qadar mashhur bo'lgandiki, oshiq-ma'shuqlar bir - biriga xat yozganda qizlar o'ziningismi o'rniga Oypopuk, yigitlar O'ktam deb yozardi". Adib asarlarida yoshlar hayotini hayotiy voqealar bilan olib chiqqanligi bois, ko'plab yosh kitobxonlar e'tiborini o'ziga tez tortibgina qolmay ularni chuqur o'ylantirib, kengroq fikr mushohada qilishiga sabab bo'ladi. Asar O'ktamning "Yakkachinor" qishlog'iga dadasining xohishi sabab agranom bo'lib, ishga jo'nashi bilan boshlanadi. O'ktam oilada yolg'iz farzand bo'lganli bois, juda erka o'sgan edi. Onasi bo'lsa, to'qqiz yoshida zotiljam kasalligidan vafot etgan edi. Shunday qilib, jahlim chiqsa ham otamning ra'yini qaytarmadim. Institutda menga taklif qilingan joylar orasida "Yakkachinor" nomli kalxozi ham bor edi. Samarqand oblastida, tog'ning tagida ekan bu kolxoz.

Hatto bu qishloq haqida rivoyat ham bor. Bu qishloqqa birinchi kelgan inson uchun ko'rimsizroq taassurot uyg'otsada, lekin qishloq ahli mehmondo'stligi, samimiyligi bilan o'ziga tortardi. O'ktamga boshida bu qishloq unchalik ham yoqmagan bo'lsada, vaqt o'tib uning eng qadrlil maskan, ajoyib xotiralar bilan qalbida chuqur va so'nmas iz qoldiradi.

O'ktamning bu qishloqqa kelib birinchi tanishgan insoni bu Mavlon bo'lib, u "Yakkachinor" qishlog'iga doktor bo'lib keladi. Yozuvchi ushbu qahramon portretini tasvirlarkan, qahramon haqida shunday yozadi: "U juda chiroyli jilmayardi. Pastki qalin labi sal cho'zilib, o'ng yuzida kichkina chuqurcha hozil bo'lardi. Ingichka mo'ylovi yonidagi moshdek hol bo'rtib chiqib, uni xuddi yosh bolaga o'xshatib qo'yardi". Bu bilan ko'rish shuni ko'rish mumkinki, yozuchi qahramon portertini yaratar ekan, qahramonda samimiylilik borligini, unda bolalarcha soddalik tuyg'usini uning qiyofasini yaratish orqali tasvirlab bergan. Uning bu qishloqqa kelganiga chamasi bir yilcha bo'lib, kelganiga juda pushaymon bo'lardi. Buning sababi qishloqda bemorlarning kamligi edi. "Shaharda bemor doktor izlasa, bu yerda doktor bemor izlaydi" – deydi. Bu yerda yozuvchi shahar va qishloq insonlarini o'zaro taqqoslagan. Chunki qishloq aholisining kuni erta tongdan mehnat qilish bilan boshlanib, to kunbotarga qadar ishlash bilan tugaydi. Doimiy mehnat va harakatda bo'lgan insonning kasal bo'lishi, harakati kam insonga nisbatan oz bo'lishini yozuvchi o'tkir mahorat bilan tasvirlab qo'ygan. Bundan tashqari, yozuvchi yosh mutaxassislarning yangi muhitga moslashish va kasb faoliyatida qiyinchiliklarga uchrashi, ularning ruhiy psixologiyasiga salbiy ta'sirini Mavlon obrazi orqali ochib berishga harakat qilgan. Mavlon o'zi yashoyotgan uyga O'ktamni taklif qiladi. Mavlon kelganda endigina o'g'li harbiy xizmatga ketgan bir kampir bilan yashar edi. Kampir tabiatan gapdon ayol bo'lsada, lekin uning qiyofasi orqali yozuvchi mehribon, mehmondo'st, jafokash bir o'zbek ayolini gavidalantirgan. Bu voqea orqali qishloq aholisining qanchalik mehmondo'stligini, begona insonga ham o'z uyidan boshpana berishini ko'rishimiz mumkin. Yigitlar ko'chaga chiqishgan payt quyosh botgan, chiroqlar miltirab turar edi. Qishloqda tong otishi va kun botishini ajoyib o'ziga xos manzarani kasb etadi. O'sha kuni maktabni o'n ikki kishi tamomlagani munosabati bilan qishloqda o'yin kulgi bo'layotgandi. Maydonda yigit-qizlarning sho'x qaynoq kulgilari yangrab, hech qanday e'lonlarsiz raqs boshlanib ketadi. O'yindan so'ng lapar undan keyin keng doira tashkil qilinib, "Tanovar" kuyi yangraydi. Davraga xon atlas kiygan, boshidagi havo rang peshonabog'ini qaytatdan bog'lab olgan bir qiz hrom bilan yengil raqsga tushardi. U qiz Usmon akaning ya'ni raisning qizi Oypopuk bo'lib, uning raqsga tushishi beixtiyor O'ktamni o'ziga jalb qilgan edi. Oypopuk o'rta bo'yli, qotmadan kelgan uyatchang bir qiz bo'lib, Usmon akaning yolg'iz farzandi edi. Yozuvchi tomonidan kuylar orasidan aynan, "Tanovar" kuyining tanlanishi ham bejizga emas. "Tanovar" kuyida nafislik va noziklik bilan bir qatorda, inson qismati, sevgi iztirobi, ayriliq va umrining o'tkinchligi kabi falsafiy ma'nolar seziladi. "Tanovar" kuyi va Oypopukning nafisligi asarning tasviriy-estetikasini ochib berishda muhim badiiy detal hisoblanadi. Oypopuk obrazi asarda sevgi motivi hisoblanib, asarning voqealar rivoji ham, aynan O'ktam va Oypopukning tanishishidan boshlanadi. Usmon aka obraziga to'xtaladigan bo'lsak, juda mehnatkash halol, o'z ishini astoydil qiladigan, asli kasbi tarixchi bo'lsada, ikkinchi mutaxassisligi qishloq xo'jaligi edi. Uning hech kimi yo'q, mehribonlik uyida katta bo'lgan bo'lib,

diplom olganiga ko'p bo'lmasdan urushga jo'nab ketadi. Urushda kutilmagan fojia sabab, uni gosbitilga jo'natishadi. U yerda Olisya ismli bir hamshira qizni yoqtirib u bilan birga bo'lishga ahd qilishadi. Usmon aka Toshkentga qaytadi. Ammo qonli urush sabab, u sevgan qizini yo'qotganini ya'ni Olesyaning bomba tagida qolib halok bo'lganligi haqida xabar topadi. Bu voqea Usmon akaning keying hayotida keskin o'zgarishlarga sabab bo'lib, uylanmay o'zini butkul oilaviy hayotdan chetlashishiga sabab bo'ladi. Usmon aka obrazida urushda juda katta psixologik travma olgan qahramon ruhiyatini ko'rish mumkin. Usmon aka Oypopukni mehribonlik uyidan asrab, olib unga otalik qilmoqchi bo'ladi. Oypopukning ota-onasi yo'q bo'lib, ularning kelishini intiqlik bilan yo'l qarab kutardi. Usmon aka Oypopukni uyiga tez-tez olib ketar edi. Borgan sayin unga butunlay o'rganib qolib, uni uyiga butlayga olib keladi. Oypopuk hech yemay, ichmay qo'yadi. Deraza oynalari oldida o'tirib, hayol surish bilan kunini o'tkazar edi. Oypokdagi bu holat tashqi dunyodan uzilish, ichki yolg'izlik va ruhiy tushkunlikni ifodalaydi. Usmon aka va Oypopukning taqdir yo'llari o'xshash, ikkisi ham ota-onasidan ajragan, ota-ona mehriга to'ymagan, mehribonlik uyida tarbiyalangan qahramonlardir. Shu sababdan ham Usmon aka biologik ota bo'lmasada, Oypopukda kechayotgan hissiyotlarni tuygan holda unga otalarcha mehr berdi, butun hayotini unga baxshida qilib ko'ngliga qaradi, tarbiya qildi. Anchagacha Usmon akani dada demay yuradi. Oypopuk 7-sinfni a'lo bahoga bitirganda, Usmon aka katta ziyofat qilib beradi, hatto u ziyofatga mehribonlik uyi direktori Asomiddin aka ham keladi. Ziyofat tugab, mehmonlar tarqalgandan so'ng Oypopuk birinchi marta "dada" deb chaqiradi. Bu voqea Oypopukning Usmon akaga nisbatan, otalik mehrini his qilganini, uni ota sifatida tan olganini ochib bersa, bir tomondan qahramonning ruhiyatida ijobiy o'zgarish ro'y berib, ichki psixologik to'siqning singanligini ko'rsatadi. Shu birgina, so'zni Usmon aka yillar davomida intiqib kutgan edi va xursandchiligidan yig'lab yuboradi. Oypopuk va O'ktam o'rtasida iliq bir munosabat paydo bo'ladi ammo ikkisi ham bu tuyg'uni oshkor etishga anchagacha jur'ati yetmaydi. Oypopuk sodda, beg'ubor tuyg'ulari ham buloq suvidek, tiniq bo'lsada, ammo hayotni doim bir xil tarzda, bir maromda hech qanday qiyinchiklarsiz kechadi deb o'ylar edi. Bunday o'ylashining ham asl mohiyati Usmon aka uni hech qanday qiyinchiliklarsiz, kentik ko'nglini o'ksitmay katta qilganligi sababli ham hayotni doim yorqin ranglarda tasavvur qilar edi. Afsuski, hayot har doim ham biz xohlagandek, bizning ra'ylarimizga mos ravishda ketayvermaydi. O'ktam va Oypopuk o'rtasidagi munosbat bora-bora jiddiy tusa ola boshlaydi. Ular tez-tez ko'rishib turishar va kelajak haqida ajoyib, yorqin hayollar surishar edi. Ammo Oypopukning doim bir g'ashlik, bir hadik bilan yashardi. O'ktam bilan oila qursa, otasini yolg'iz tashlab, shaharga ketib qolishdan qo'rqqar edi. Chunki Oypopukni Usmon akadan, Usmon akani bo'lsa, Oypopukdan boshqa hech kimi yo'q edi. Garchi haqiqiy ota bola bo'lmasada, haqiqiy ota-boladanda, ancha yaqin, bir- biriga qattiq suyanib, kuchli mehr qo'ygan insonlar edi. Yozuvchi Oypopuk va O'ktam bilan o'zaro suhbatini shunday chizgilar orqali yaratadi. "...Dadamlar-chi? U kishi mening tug'ishgan

otam emas. Lekin men uchun tu- g'ishgan otamdan ham aziz. Tashlab ketolmayman. Xuddi menga o'xshab, u ham yolg'iz. Meni deb hatto turmush qurmagan. Men ham o'zimni unga bag'ishlamoqchiman. Buning uchun men hamma narsadan, sevgimdan ham, baxtimdan ham voz kechishim mumkin. Keting". Bundan ko'rinadiki, otasini yolg'iz qoldirmaslik uchun hatto o'z baxtidan ham kechishga tayyor qahramon obrazidir. Kutilmaganda Usmon aka tuxmat sabab qamoqqa tushib qoladi. Uning kutilmaganda, nohaq qamalishi qishloq aholisni ancha esankiratib qo'yadi. Negaki uni mahalladoshlari, halol va jonkuyar va birovning haqqini yemaydigan inson ekanligini yaxshi bilishar edi va qattiq hurmat qilishardi. Bu xabar boshqalar kabi, Oypopukni ham esankiratib, sarosimaga solib qo'ygan edi. Usmon aka obrazida biz nafaqat mehribon ota, o'zidan ko'p mahalladoshlarini o'laydigan halol, haqchil rais obrazini ham ko'rishimiz mumkin. Oypopukning sof qalbida otasidan bu ayblov olib tashlanishiga, tez orada yana yoniga qaytishiga umid uchqunlari yonib turar edi. Shunday og'ir damlarida O'ktamga qattiq suyanishni, undan dalda bo'lishini kutar edi. O'ktamning birgina dadangning aybi bo'lmasa, qamashmas edi deb o'ylamay gapirgan gapi, Oypopukning barcha orzu-umidlarni, unga bo'lgan ishonchini paymon qilinishiga sababchi bo'ladi. Bu birgina g'azab ohangida aytilgan so'z, ikki yoshning baxtsizligiga, O'ktamning bir umr vijdon azobida qolishiga sababchi bo'ladi. Oypopuk yo'q bo'lib qoladi va uni hamma qidirishishni boshlaydi. Tongga yaqin uni Yakkachinor o'sgan qoya tagidan topishadi. Afsuski, u jonsiz edi. Bu voqea O'ktamga qattiq ta'sir qilib, Yakkachinordan ketib qoladi. O'ktam ismi jismiga monand qahramon bo'lsada, uning shoshqaloqligi, o'ylamasdan bir og'iz gapi bir umrga afsuslanib o'tishiga sabab bo'ldi. Filologiya fanlari doktori, prof. S.Mirvaliyev asar qahramoni O'ktam haqida o'zining fikrlarini bildirib o'tadi "...asar qahramoni O'ktamning ana shu ichki tuyg'yonidan chiqqan so'zlar hayot haqidagi, sevgi haqidagi uning xulosasi emas, balki yozuvchi olg'a surgan g'oyaning qahramon orqali fodalanishidir". Axir, Usmon aka Oypopuk uchun qanchalik qadrli inson ekanini hammadan yaxshi bilar edi. Oypopuk undan shunchaki, og'ir kunida dalda bo'lishini, g'amgin ko'nglini yoritishini kutgan edi xolos. Oradan 6 yil o'tib qishloqqa oxiri, O'ktam qishloqqa borishga jur'at qiladi va yana ilk uchratgan insoni, qadrdoni, doktor ya'ni Mavlonni ko'radi. Boshida bu qahramon taqdiridan norozi bo'lib, endi bo'lsa, xudo bergan qismatga ko'ngan oila ham qurib, shu qishloqda qolib ketadi. Hali ham shu qishloqning medpunktida o'z ish faoliyatini olib borardi. O'ktam qabristonga, ya'ni Oypopuk qabriga boradi. Katta qora marmartosh yotqizib, ustida yangi uzilgan gullar sochilib yotardi. Yana o'sha xotira, yana o'sha kulgi, ajoyib damlar ko'z oldidan bir-bir o'ta boshlaydi. Afsuski, endi hammasi kech.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytishim kerakki, yozuvchi bu asar orqali insonni boshqalar bilan emas, balki har doim o'zi bilan ichki kurashda yashashini o'tkir mahorat bilan ochib berilgan. Asar hayotiy va haqiqatdan, har qanday kitobxon qatlamini o'ziga tortadigan va chuqur tafakkur bilan tahlil qilishga undaydi. O'lmas Umarbekovning asarlari umuman

olganda, sodda va jo'n ammo chuqur ma'noga ega insonni chuqur o'yga toldiradigan bevosita o'zini va hayotini tahlil qilishga undaydi. Insonning birgina o'ylamay so'zlashi hayotida qanchalik tub burilishlarni yasashi mumkinligini birgina O'ktam obrazi orqali yozuvchi tomonidan mahorat bilan kitobxonga ochib berilgan. Biz doim tanlovlar orasida yashaymiz va bu tanlovimiz va qilgan qarorimiz kelajagimizning qay darajada kechishini qaysidir, ma'noda belgilab beradi. Yozuvchi "Sevgim-sevgilim" qissasini shu darajada mahorat bilan yozganki, uni o'qigan kitobxon qahramonlarning ichki kechinmalarini his qilishga, o'sha davr manzarasini ko'z oldida gavdalantirib, uni hayolan o'sha davr muhitiga olib boradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. D.Quronov.- Toshkent: Akademnashr,2018.- 480 b.
2. Mamatqul Hazratqulov "Jadid" gazetasining 2025-yil 31-yanvardagi 5-soni
3. Umarbekov, O'lmas . tanlangan asarlar: uch jildlik. 2-jild: Qissalar - T.: "Sharq", 2009-384 b.
4. Мирвалиев С. «Истеъдоднинг кўш қаноти». Тошкент: «Ёзувчи», 1993.

